

**KONFERENSIYALAR.COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**MAY, 2026-YIL**





# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI**

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

**TOSHKENT-2026**

**ISBN 978-9910-8337-6-2**

**O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM  
ISTIQBOLLARI.** I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2026-yil, 8-may

**Mas’ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

**ISBN 978-9910-8337-6-2**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### **BIOLOGIYA FANLARI**

*Мадаминов Рахматилло*

ПРИГОТОВЛЕНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ СРЕД ДЛЯ БАКТЕРИЙ И ГРИБОВ ..... 5-7

### **TARIX FANLARI**

*Qirg'izov Baxtiyor*

FARG'ONA VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARNI AYRIMLARINING TARIXI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR TAHLILI .....8-12

### **IQTISODIYOT FANLARI**

*Mirzayev Shoxrux*

KON-METALLURGIYA SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR ..... 13-15

*Aliqulov Abbos*

ARALASH MA'LUMOTLAR ASOSIDA REGRESSIYA MODELLARINI BAHOLASHDAGI YASHIRIN SEGMENTLAR MUAMMOSI ..... 16-22

### **FALSAFA FANLARI**

*Boyxonov Umidjon*

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARI USTUVORLIGI KONSEPSIYASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI ..... 23-28

### **FILOLOGIYA FANLARI**

*Isomidinova Zilola*

RAQAMLI OAVDA MUALLIFLIK HUQUQI MUAMMOLARI ..... 29-31

*Raximjoniva Nozima*

ZAMONAVIY MEDIA MAKONIDA TURIZM KONTENTINING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ..... 32-35

*Isanova Feruza*

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ..... 36-39

### **YURIDIK FANLAR**

*Мухиддинова Эльзода*

ИНСТИТУТ НЕДОПУСТИМОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ: ОБОСНОВАНИЕ НЕЗАВИСИМОСТИ И ОБОСОБЛЕННОСТИ ОТ ДРУГИХ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ ..... 40-43

*Хайдарова Хилола*

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ЦИФРОВЫХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ..... 44-48

*Shorasulova Gulnoza*

RAQAMLI KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI VA UNING QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI ..... 49-54

## **PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nizomova Bashoratxon, Mirazamova Mahliyo*

ZOOLOGIYA TA'LIMIDA TAYANCH BELGILAR (SXEMA, JADVAL, GRAFIK) VA MULTIMEDIA  
TAQDIMOTLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... 55-58

*Xaydarova Namunaxon*

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM  
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN  
MEXANIZMNI ISHLAB CHIQISH ..... 59-61

*Adamatov Anvar*

KOREYA TA'LIM TIZIMIDAGI PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNING GLOBAL TA'LIM  
KONTEKSTIDAGI AHAMIYATI ..... 62-65

## **SIYOSIY FANLAR**

*Xolmatov Saidbek*

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING MINTAQAVIY STRATEGIYASI VA SURIYA OMILINING  
GEOSIYOSIY AHAMIYATI ..... 66-69

**IQTISODIYOT FANLARI****KON-METALLURGIYA SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR****Mirzayev Shoxrux Shavkatovich**

Loyihalar va xaridlar samaradorligini oshirish markazi boshqarma boshlig'i

Email: [shoxrux.mirzaev.86@mail.ru](mailto:shoxrux.mirzaev.86@mail.ru)

Tel: +998 94 221 77 85

ORCID: 0009-0009-3491-2634

Toshkent, O‘zbekiston

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda kon-metallurgiya sanoatida amalga oshirilayotgan mega investitsiya loyihalarining iqtisodiy mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda yirik kapital sig‘imli loyihalarning uzoq muddatli xarakteri, yuqori risk darajasi va global bozor bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, loyihalar samaradorligini belgilovchi moliyaviy, texnologik va institutsional omillar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqilgan. Natijada mega investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish hamda ESG tamoyillariga asoslangan mexanizmlarni kengaytirish zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kon-metallurgiya sanoati, mega loyihalar, samaradorlik, investitsiyalar, risklar, kapital sig‘imi, ESG.

**SPECIFIC FEATURES OF MEGA-INVESTMENT PROJECTS IN THE MINING AND METALLURGICAL INDUSTRY AND FACTORS AFFECTING THEIR EFFECTIVENESS****Mirzayev Shoxrux**

Center for Improving Project and Procurement Efficiency

**Annotation.** This paper analyzes the economic nature and specific characteristics of mega-investment projects in the mining and metallurgical industry, as well as the key factors influencing their effectiveness. The study highlights the capital-intensive nature, long-term implementation period, high risk level, and strong dependence on global market conditions. Furthermore, financial, technological, and institutional factors affecting project efficiency are examined in an integrated manner. The results justify the need to diversify financing sources, implement modern project management approaches, and expand ESG-based financial mechanisms to improve project performance.

**Key words:** mining industry, mega projects, efficiency, investments, risks, ESG.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda resurslar uchun raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda kon-metallurgiya sanoati milliy iqtisodiyotlarning strategik tayanch tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu tarmoq yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini shakllantiradi va eksport tushumlarining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi [1].

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sanoatni chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish hamda eksportni diversifikatsiya qilish ustuvor vazifalar

sifatida belgilangan [2]. Ushbu maqsadlarga erishish ko'p jihatdan yirik mega investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirishga bog'liq.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mega loyihalarning yuqori kapital sig'imi, uzoq muddatli amalga oshirish davri va risk darajasining yuqoriligi ularning samaradorligini ta'minlashda qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois mazkur loyihalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

### **Mega loyihalarning o'ziga xos xususiyatlari**

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kon-metallurgiya sanoatidagi mega investitsiya loyihalari quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

- **yuqori kapital sig'imi** – investitsiya hajmining milliardlab dollarni tashkil etishi ularni moliyaviy jihatdan yuqori xavfli qiladi;

- **uzoq investitsiya sikli** – loyiha boshlanishidan to'liq quvvatga chiqishgacha bo'lgan davr 5–10 yilni tashkil etadi;

- **risklarning ko'p qirrali tabiati** – geologik, texnologik, moliyaviy va bozor risklari o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi;

- **narx kon'yunkturasiga yuqori bog'liqlik** – jahon bozoridagi metall narxlarining o'zgarishi loyihaning ichki daromadlilik darajasiga bevosita ta'sir qiladi;

- **infratuzilmaga yuqori talab** – transport, energetika va logistika tizimlarining rivojlanganligi hal qiluvchi aҳamиятга эга.

### **Samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar (tahliliy yondashuv)**

Loyihalar samaradorligi kompleks omillar ta'sirida shakllanadi:

**1. Moliyaviy omillar.** Moliyalashtirish manbalarining tarkibi (kredit, aksiyadorlik kapitali, obligatsiyalar) va kapital qiymati (WACC) loyihaning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda moliyalashtirish manbalarinin diversifikatsiya qilish risklarni kamaytirishga xizmat qiladi [3].

**2. Texnologik omillar.** Innovatsion va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi.

**3. Boshqaruv omillari.** Loyiha boshqaruvida zamonaviy metodologiyalar (PMI, PRINCE2)dan foydalanish muddat va xarajatlar og'ishlarini kamaytiradi.

**4. Bozor omillari.** Talabning barqarorligi, eksport bozorlari diversifikatsiyasi va narxlar prognozining aniqligi muhim ahamiyatga ega.

**5. Institutsional omillar.** Davlat tomonidan yaratilgan investitsiya muhiti, soliqqa oid imtiyozlar va huquqiy barqarorlik investorlar qarorlariga bevosita ta'sir qiladi.

**6. ESG omillari.** Ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olish, xususan "yashil" texnologiyalardan foydalanish xalqaro investorlarni jalb qilishda muhim omilga aylanoqda [4].

Kon-metallurgiya sanoatida amalga oshirilayotgan mega investitsiya loyihalari yuqori kapital sig'imi va murakkabligi bilan ajralib turadi hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, loyihalar samaradorligini oshirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish zarur.

Shu nuqtai nazardan, mega investitsiya loyihalarini amalga oshirishda kompleks yondashuvni qo'llash hamda ESG tamoyillarini integratsiya qilish ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Fabozzi F. Capital Markets and Investment Management. – Wiley, 2009.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2023.
3. Yescombe E.R. Public-Private Partnerships. – Oxford, 2018.
4. OECD. Sustainable Finance and ESG Investing. – Paris, 2021.

# O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, 10-may

**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM  
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.  
– Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2026-yil, 8-may

**ISBN 978-9910-8337-6-2**

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.